


Tadbirkorlar qabuli o'tkazildi




Tadbirkorlar qabuli o'tkazildi

27.02.2023 February 27, 2023


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi turmush darajasini yaxshilash, real daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois Surxondaryo viloyatida ham tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda, ular faoliyatida yuzaga kelayotgan muammo va to'siglarni tezkor bartaraf qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimovning bugun, 27 fevralb kuni viloyat, tuman va shahar hokimining tegishli o'rribosarlari, mutasaddi viloyat tashkilotlari rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan "Tadbirkorlar qabuli"da ham 30 ga yaqin xususiy sektor vakillarining murojaatlari, taklif va tashabbuslari atroflicha o'rganildi.



Murojaatlarning asosiy qismi tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish uchun tijorat bankidan kredit, subsidiya mablag'lari ajratish, auktsiondan olingan maydonlarni hujjatlashtirish, olingan kredit mudatlarini uzaytirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ko'rsatilgan xizmat va berilgan mahsulot uchun to'lanmay qolgan mablag'ni undirish kabi masalalar bilan bog'liq bo'ldi.



Qabul davomida tadbirkorlardan tushgan murojaatlarning aksariyati joyida hal etilgan bo'lsa, yechimi ma'lum vaqt talab etadigan masalalar bo'yicha soha mutasaddilarga aniq vazifalar yuklatildi. Barcha murojaatlarning ijrosi viloyat hokimi tomonidan nazoratga olindi.

Ma'lumot o'rnida, haftaning har dushanba kunlari o'tkaziladigan "Tadbirkorlar qabuli"da ishtirok etish uchun dushanbadan juma kuniga qadar soat 9:00 dan 17:00 ga qadar (+99876) 225 12 37, (+99891) 585 02 42, (+99890) 645 53 80 raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin.



[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)